

DJAFAROV Bexzod

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Eron-afg'on filologiyasi kafedrası katta o'qituvchisi*

ARIFDJANOV Zokir

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti
kafedrası katta o'qituvchisi*

FORS TILIDA TINISH BELGINING O'RNİ

МЕСТО ПУНКТУАЦИИ В ПЕРСИДСКОМ ЯЗЫКЕ

PLACE OF PUNCTUATION IN THE PERSIAN LANGUAGE

Annotatsiya. *Tinish belgilari – til yozuv tizimida yordamchi vazifani bajaradigan elementlari hisoblanadi. Aksar tillarining yozuv tizimida tinish belgilari mavjud bo'lib, ular deyarli bir xil vazifani bajaradilar. Aslida sintaktik tarzda shakllantiradigan tinish belgilari matnni idrok etish, tushunish, xususan, ovoz chiqarib o'qishda intonatsiyani shakllantirishni (ayniqsa, semantik pauza va mantiqiy urg'uni ajratib ko'rsatishni) osonlashadi. Tinish belgilar orasida vergul keng qo'llaniladi. Bu belgining ishlatilishida ba'zi xos xususiyatlari mavjud. Mazkur ishda fors tilida vergulning ana shu xususiyatalari so'nggi yillardagi ba'zi o'zgarishlar ko'rib chiqildi.*

Kalit so'z va so'z birikmalari. *Tinish belgilari, vergul, ergash gap, yozuv tizimi, pauza, punktuatsiya, intonatsiya.*

Аннотация: *Знаки препинания – это элементы, выполняющие вспомогательную функцию в системе письма языка. Во многих языковых системах письма существуют знаки препинания, которые выполняют практически одинаковую функцию. По сути, синтаксически оформленные знаки препинания облегчают восприятие и понимание текста, особенно при чтении вслух, формируя интонацию (в частности, разделяя смысловые паузы и логические ударения). Среди знаков препинания наиболее распространена запятая. Использование этой запятой имеет некоторые особенности. В данной работе были рассмотрены эти особенности использования запятой в персидском языке, а также некоторые изменения, произошедшие в них в последние годы.*

Ключевые слова. *Знаки препинания, запятые, предложения, система письма, пауза, пунктуация, интонация.*

Annotation: *Punctuation marks are elements that play an auxiliary role in the language writing system. Most languages have punctuation marks in their writing system, which perform almost the same function. In fact, syntactically formed punctuation marks make it easier to perceive and understand the text, in particular, to form intonation (especially to distinguish semantic pauses and logical emphasis) when reading aloud. Commas are widely used punctuation marks in persian language. There are some specific features in the use of this sign. In this article, some changes of these features of the Persian language comma in recent years have been considered.*

Key words. *Punctuation marks, commas, clauses, writing system, pause, punctuation, intonation.*

KIRISH

Yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda punktuatsiyaning - tinish belgilarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birliklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda ham favqulodda muhim ahamiyatga ega [1:4]. Tilshunoslikda punktuatsiya termini tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qonun-qoidalar majmui va tinish belgilarining o'ziga nisbatan ishlatiladi. Punktuatsiya (lotincha punktum - nuqta) - tilshunoslikning mustaqil bo'limi sifatida tinish belgilari tizimi va ularning qo'llanish qonun-qoidalarini o'rganadi. Punktuatsiya qoidalari va me'yorlarini bilish esa yozma fikrni aniq va to'g'ri, mantiqli va ifodali, ravon va tushunarli hamda maqsadga muvofiq bayon qilishda muhimdir [2:5].

Mazkur kichik tadqiqotning maqsadi hozirgi fors tilidagi vergulning qo'llanilishini aniqlash va ularni tahlil qilishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- Fors tili yozuv tizimidagi tinish belgilar haqida umumiy ma'lumot yeg'ish;
- vergulni qo'llanilishini ko'rib chiqish;
- vergulning qo'llanilishini manbalardan aniqlash va misollar bilan ko'rsatish;

Misollar haqiqiy va ishonchli bo'lishi uchun Erondagi rasmiy OAVlaridan to'plandi.

ASOSIY QISM

Vergul (fransuzcha: virgule) fors tilida eng ko'p qo'llanadigan tinish belgilar jumlasiga kiradi. Vergul («ویرگول») fors tilidagi adabiyotlarda kabi bir qancha nomlar bilan keladi [3:27]. Vergul fors tilida ham boshqa tillardagi singari kichik pauza vazifasida, qo'shma gap tarkibida, gapning qaysidir bo'laklari uyishib kelganida va shunga o'xshash boshqa hollarda qo'yilishi mumkin. Vergulning eng foydali tarafi: gapdagi mavhumlikni bartaraf etadi, o'qishni osonlashtiradi va gapni tushunishga ko'maklashadi [3:28]. Mazkur kichik tadqiqotda vergulning quyidagi ishlatilish hollarini ko'rib chiqildi:

Shart ergash gapli qo'shma gaplarda. Vergul fors tilida ko'pgina ergash gapli qo'shma gaplarda ishlatiladi. Xususan, shart ergash gapli qo'shma gaplarda ham qo'yilishi mumkin:

اگر کاندیداهای انتخابات از قوانین مالی عدول کنند، دو دوره از کاندیداتوری در هرگونه انتخاباتی محروم خواهند شد. [isna.ir/xdQz96]

Agar saylov nomzodlari moliyaviy qoidalarini buzsalor, ular har qanday saylovda ikki muddatga qatnashish huquqidan mahrum qilinadi.

Shart ergash gap ba'zan bosh gapning ichida yoki bosh gapdan so'ng kelishi mumkin. Vergul ham shunga yarasha o'zgaradi, bu «ویرگول لغزنده» siljuvchi vergul deb ataladi:

Agar shart ergash gap bosh gapdan oldin kelsa, vergul ergash gapdan so'ng qo'yiladi va bosh gap bilan kichik pauza orqali o'qishni taminlaydi; اگر بروکرسی پارلمانی نبود، تحریمها تمام شده بود.

Shart ergash gap bosh gap ichida ham kelishi mumkin. Bunday holda ergash gapning birinchi so'zidan oldin va oxirgi so'zidan keyin vergul qo'yiladi.

تحریمها، «اگر بروکرسی پارلمانی نبود»، تمام شده بود.

Shart ergash gap ba'zan bosh gapdan keyin ham kelishi mumkin. Bunday holda bosh gapdan so'ng vergul qo'yiladi.

تحریمها تمام شده بود، «اگر بروکرسی پارلمانی نبود»

[matnook_com/2906]

Sabab ergash gapli qo'shma gaplarda. Sabab ergash gapli qo'shma gaplarda ham vergulning

qo'yilishi ergash gapning joylashuviga bog'liq. Bunday gaplarda ham «ویرگول لغزنده» hodisasi sodir bo'lishi mumki:

چون ارتباط ما با وی قطع است، اصلا نمی‌دانیم این حادثه چرا و چگونه پیش آمده است.

[isna.ir/xdQv9R]

U bilan aloqamiz uzilib qolganligi uchun bu voqea nega va qanday sodir bo'lganini bilmaymiz.

مادر بزرگ من یک تاریخ معاصر بود، چون دوران مظفرالدین شاه، احمدشاه، محمدعلی شاه، رضاشاه و محمدرضا شاه و دوران انقلاب اسلامی را زیسته و درک کرده و خود فصلی از تاریخ بود.

[isna.ir/xdQxdX]

Mening buvim tirik tarixchi edi, chunki u Muzaffariddinshoh, Ahmadshoh, Muhammad Alishoh, Rizoshoh va Muhammad Rizoshohlar davrini va Islom inqilobi davrini yashab, tushunib yetgan va tarixning bo'lagi bo'lgan.

Hol ergash gapli qo'shma gaplarda. Bu turdagi ergash gaplarni fors tilida جمله پیرو قیدی jomle peyrov-e qeydi deb nomlanadi va keng tushunchadi. Vergul ham bunday gaplarda ishlatilishi mumkin: مورايس: هر طوری که پیام بخواهد، حمایت می‌شود!

[http://akhr.ir/9721195]

Morais: Xabar xohlasa, u qo'llab-quvvatlanadi!

Izohlanmish va izohlovchi orasida. Gapda biror bir so'z yoki so'z birikmasi boshqa bir so'z yoki so'z birikmasi tomonidan alohida izohlab kelayotgan bo'lsa, izohlanmishdan avval vergul qo'yilishi mumkin. Fors tilida izohlanmish بدل, izohlovchi مبدل deb nomlanadi. Bu publiŝtk matnlarda juda ko'p uchraydi:

آقای رئیسی در پیامی به «شوکت میرضیایف»، رئیس جمهور ازبکستان فرا رسیدن سالگرد استقلال این کشور را به وی و مردم کشورش تبریک گفت

[https://www.iribnews.ir/00GdFf].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga yo'llagan Murojaatnomasida janob Raisi uni va xalqini ushbu davlat mustaqilligi bilan tabrikladi.

مصطفی وزیرى، دبیرکل شورای عالی آثار باستانی، ماه گذشته این طرح را اعلام و آن را «پروژه قرن» توصیف کرده بود.

[isna.ir/xdQzZX]

Tarixiy obidalar Oliy Kengashi Bosh kotibi Mustaf Vaziri o'tgan oy bu rejani e'lon qildi va uni "asr loyihasi" deb ta'rifladi.

Ba'zan izohlovchi so'z yoki so'z birikmasi qavsga olinishi ham mumkin. Bunday hollarda

vergulga ehtiyoj bo'lmaydi va izohlanmish qavsga olinadi:

وزارت شرایط اضطراری ازبکستان (FVV) امروز
(پنجشنبه) اعلام کرد...

[isna.ir/xdPFZ6]

O'zbekiston Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) bugun (payshanba) ma'lum qildi...

Gapning biror bir bo'lagi uyushib kelganda. Bu vergulning eng ko'p qo'llaniladigan holatidir. Mazkur kichik ishda to'plangan misollar vergul uyushiq bo'laklarda eng ko'p ishlatilishini ko'rsatib berdi;

ega uyushib kelganda;

بهرام افشاری، هوتن شکیبا، الهه حساری، صدف اسپهبدی، حسین پاکدل و مهدی حسینی‌نیا، (با هنرمندی) سیلوش طهمورث و ناهید مسلمی به ایفای نقش می‌پردازند.

[isna.ir/xdQB79]

Bahram Afshari, Xuten Shakiba, Elaha Hesariy, Sadaf Espahbedi, Husayin Pokdel va Mahdi Husayniyino, (badiiy jihatdan) Siyovush Tahmures va Nohid Muslimiy ro'llarni ijro etadilar.

kesim uyushib kelganda;

مردم در همه جا با من تماس می‌گیرند، نامه می‌نویسند، ایمیل می‌زنند

[isna.ir/xdQzZX].

Odamlar hamma joyda menga qo'ng'iroq qilishmoqda, yozishmoqda, elektron pochta xabarlarini yuborishmoqda.

hol uyushib kelganda;

جاده چالوس روزهای یکشنبه، دوشنبه و سه‌شنبه مسدود است.

[isna.ir/xdPRX9]

Chalus yo'li yakshanba, dushanba va seshanba kunlari yopiq.

Aniqlovchi uyushib kelganda;

غذای بدون گوشت، ارزان و مدرن برای کسانی که تنوع غذایی را دوست دارند.

[hamshahrionline.ir/x8smJ]

Xilma-xil taomlarni yoqtiruvchilar uchun go'shtsiz, arzon va zamonaviy taom.

Gap mazmunini konkretlash maqsadida. Bunda gap tarkibidagi birikmalar, xususan, izofiy birikmalarni hosil bo'lib qolishini oldini olish maqsadida ham qo'yiladi. Ma'lumki, fors tili yozuv tizimida harakatlar tushib qoladi. Bu esa gap tarkibida izofiy birikmalarni ajratib olish qiyinlashtiradi. Mana shunday hollarda vergul qo'yilishi mumkin.

تولید، بهانه‌ای برای تغییر کاربری غیرمجاز نیست.

[isna.ir/xdQFvK]

Ishlab chiqarish foydalanishni ruxsatsiz o'zgartirish uchun bahona emas.

kabi zidlovchi bog'lovchilardan oldin.

Bu turdagi bog'lovchilardan oldin vergul qo'yilishi ularning gapdagi o'rniga bog'liq. Masalan, gapning boshida kelsa vergul qo'yilmaydi. Qolgan hollarda vergul qo'yilishi mumkin:

این نخستین بار نیست که بزوس سهام آمازون را به فروش می‌گذارد، اما از سال ۱۲۰۲ تاکنون این فروش انجام نشده بود.

[isna.ir/xdQyGc]

Bu Bezosning Amazon aksiyalarini birinchi marta sotishi emas, ammo u 2021-yildan beri sotilmagan.

ادعای تقلب در انتخابات مطرح می‌شود، ولی ثابت نشده / نظام رای مردم را حق الناس می‌داند.

[mshrgh.ir/1576387]

Saylovda firibgarlik ayblovi ko'tarilmoqda, ammo bu isbotlanmagan, tizim xalq ovozi qonuniy deb hisoblaydi.

- Undalma so'zlar ishtirok etgan gaplarda.

Undalma fors tilida gapning boshida, o'rtasida va oxirida ham kelishi mumkin. Vergulning qo'yilishi undalmalarning gapdagi o'rniga ham bog'liq.

a) Agar undalma gapning boshida kelsa, vergul undalmadan so'ng qo'yiladi.

بعد برای شروع مراسم گفت: آقایون، وقتشه. [اثر: دختری که ماه را نوشید]

Keyin, marosimni boshlash uchun dedi: "Janoblar, vaqt bo'ldi".

Agar undalma gapning o'rtasida kelsa, vergul undalmadan oldin va keyin qo'yiladi;

اگر به خانه من آمدی، برای من، ای مهربان، چراغ بیاور.

Uyimga kelsang, ey mehribon, chiroq olib kel.

Agar undalma gapning oxirida kelsa, vergul undalmadan oldin qo'yiladi;

- پسر با دسته‌گل آمد خانه. مادرش گفت: این گل‌ها را از کجا آورده‌ای، پسر؟

-Bola uyga guldaŭta bilan keldi. Onasi: Bu gullarni qayerdan oldingiz, bolam?

Agar undalma xitob, his-hayajon bilan aytilsa, yozuvda vergulning o'rniga undov belgisi qo'yiladi. آقای روحانی! زنگ انشا تمام شده

[mshrgh.ir/1158421]

Janob Ruhoniy! Insho qo'ng'iroq tugagan...

Adabiyotlar haqida ma'lumotlar berilganda. Matnda adabiyotlarga havolalar berilganda yoki adabiyotlar ro'yxati shakllantirilganda muallifning

ismi, familiyasi, nashr bo'lgan shahar va nashriyot nomidan so'ng qo'yilishi mumkin.

باطنی، محمدرضا (۱۷۳۱)، نگاهی به تازه به دستور زبان، تهران: موسسات انتشارات آگاه، چاپ پنجم.

Ko'chirma gaplarda. Ko'chirma gap به قول، به گفته kabi iboralar bilan ifodalanganda mazkur so'zlar ishtirok etgan birikmadan so'ng vergul qo'yiladi va ko'chirma gap esa qo'shtirnoqqa olinadi.

به گزارش ایسنا، با نزدیک شدن به ایام انتخابات مجلس دوازدهم در ۱۱ اسفند شاهد اظهارات و ادعاهای غیر واقع توسط برخی نامزدها هستیم.

[isna.ir/xdQBCD]

ISNA xabariga ko'ra, 11-mart kuni parlamentga 12-chaqiriq saylov o'tkaziladigan kunlar yaqinlashar ekan, ayrim nomzodlarning haqiqatga to'g'ri kelmaydigan bayonotlari va da'volariga guvoh bo'lmoqdamiz.

ning o'rnida kelishi mumkin. Ba'zi hollarda و او عطف (va yoki o) bog'lovchilarining takroriy ishlatilishidan tiyilish maqsadida ham vergul qo'yilishi mumkin [3:28]. Ma'lumki, vergul fors tili imlo qoidalariga kirib kelganiga ko'p bo'lmagan. Avvallari vergulning vazifasini vov harfi (va yoki o) bajargan. Vergul kirib kelgandan so'ng و او عطف ning o'rni egallay boshladi. Odatda vergul uyushiq so'z yoki birikmalar uchtdan ortiq bo'lsa, qo'yiladi va eng oxirgisiga و عطف yoziladi: آنتونی، آنوшка و آلن فابین سه فرزند آلن دلون بر سر نظرات مخالفشان در مورد سلامتی و آینده پدرشان اختلاف دارند

[isna.ir/xdQFsJ].

Alen Delonning uch farzandi Entoni, Anushka va Alen Fabian otalarining sog'lig'i va kelajagi haqidagi qarama-qarshi qarashlari tufayli bir-biridan ajralib turishadi.

Biroq har doim ham vergul و او عطف o'rnida qo'llanilavermaydi. Masalan, nazmiy asarlarda vazn talabi bilan و او عطف ning o'zi ishlatilishi mumkin. Nasriy asarlarda esa vazn talabi bo'lmaganligi sababli vergul qo'llanilishi ko'proq uchraydi. Bu aksar hollarda asar muallifining mahorati va xohishiga bog'liqdir.

XULOSA

Hozirgi axborot davrida punktuatsiya qoidalari fors tilida ham dolzarb bo'lib bormoqda. Ayniqsa internet materiallarida tinish belgilarning noo'rin

qo'yilishi uchrab turibdi. Eronlik professional tilshunolar, fors tili jonkuyarli bu borada ko'plab chiqishlar qilishmoqda, kontentlar yaratishmoqda. Ular bu chiqishlar orqali o'z takliflarini berishmoqda. Bu ayniqsa fors tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar uchun muhimdir. Tinish belgilarni to'g'ri qo'llay olish ham til o'rganishning bir qismidir. Xususan, vergul belgisi ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud va ularni yaxshilab bilib olish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тили пунктуациясининг асосий қоидалари [Матн]/ тузувчилар: Н.М.Маҳмудов, А.П.Мадвалиев, Н.Маҳкамов. - Тошкент: «O'zbekiston» НМИУ, 2015. – 86 б.
2. O'zbek tili me'yorlari (Punktuatsiya). – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – 232 б.
3. احمدی دارانی، کرامتیان فرد، طناز. نقد و تحلیل شیوه‌نامه‌های نگارش و ویرایش فارسی (مطالعه موردی: نشانه‌گذاری) // فنون ادبی. – 2022 – 14. – №. 4. – С. 59-90.
4. Амир Хоссейни, Хоссейн Голами, Сейед Багер Имамипур. Знак тире в русских бессоюзных сложных предложениях и способы его передачи в персидском языке // МНКО. 2023. №1 (98).